



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



QASHQADARYO VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va buniyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.


Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023- yil 1- oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 34 349 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 29 303 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar 84,4 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 87,4 foiz) tashkil etdi.

**Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiyl ma’lumotlar
*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda.***

Faoliyat ko‘rsatayotgan

Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2023- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni

2023		5 106
2022		6 926
2021		8 370
2020		3 829
2019		4 543



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda 2 715 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 1 926 taga, oilaviy korxonalar 591 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida


Qarshi shahri	801	12,2 %	Nishon	289	17,0 %
Yakkabog'	420	17,1 %	Qamashi	258	11,7 %
Qarshi	411	17,1 %	Dehqonobod	236	15,7 %
Koson	406	15,6 %	Mirishkor	222	14,6 %
Kitob	321	13,5 %	Shahrisabz shahri	218	11,4 %
Kasbi	320	19,4 %	Chiroqchi	215	12,0 %
Shahrisabz	314	17,9 %	Ko'kdala	210	20,7 %
G'uzor	312	17,9 %	Muborak	153	13,4 %

2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

2023		34 349
2022		40 677
2021		36 928
2020		28 212
2019		24 703

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 34 349 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	6 573	Shahrisabz	1 757
Koson	2 597	G‘uzor	1 744
Yakkabog‘	2 460	Nishon	1 701
Qarshi	2 405	Kasbi	1 647
Kitob	2 378	Mirishkor	1 517
Qamashi	2 213	Dehqonobod	1 501
Shahrisabz shahri	1 911	Muborak	1 139
Chiroqchi	1 791	Ko‘kdala	1 015

2023- yil yanvar- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni

2023		4 953
2022		6 731
2021		8 184
2020		3 717
2019		4 217

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2023-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 953 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 4 938 ta;
- yirik korxonalar 15 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Qarshi shahri	763	13,4 %	Nishon	279	18,8 %
Yakkabog‘	406	19,1 %	Qamashi	250	13,1 %
Koson	402	17,8 %	Dehqonobod	234	18,6 %
Qarshi	396	18,8 %	Mirishkor	221	16,9 %
Kasbi	318	22,2 %	Shahrisabz shahri	210	12,6 %
Kitob	311	15,3 %	Chiroqchi	208	14,1 %
Shahrisabz	304	20,8 %	Ko‘kdala	197	24,7 %
G‘uzor	304	20,4 %	Muborak	150	15,4 %

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

2023		29 470
2022		35 766
2021		32 093
2020		23 526
2019		19 927

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- oktabr holatiga 29 470 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 147,9 foizni tashkil etdi (19 927 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 19,6 foiz, sanoat – 13,5 foiz, qurilish – 9,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,6 foiz, tashish va saqlash – 3,3 foiz, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,3 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, boshqa turlari – 9,3 foiz.

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	5685	Nishon	1487
Koson	2253	Chiroqchi	1479
Yakkabog'	2126	Shahrisabz	1462
Qarshi	2107	Kasbi	1430
Kitob	2031	Mirishkor	1306
Qamashi	1913	Dehqonobod	1258
Shahrisabz shahri	1668	Muborak	975
G'uzor	1492	Ko'kdala	798

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni

2023		4 938
2022		6 690
2021		8 163
2020		3 710
2019		4 198

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.


Shunda, 2023- yil yanvar- sentabr oylarida tashish va saqlash sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 138 tadan 209 taga (o‘sish 71 taga), qurilish 218 tadan 235 taga (o‘sish 17 taga), axborot va aloqa – 74 tadan 87 taga (o‘sish 13 taga) ko‘paydi.

Hududlar kesimida


Qarshi shahri	757	13,5 %	Nishon	279	18,8 %
Yakkabog‘	402	19,0 %	Qamashi	250	13,1 %
Koson	402	17,9 %	Dehqonobod	233	18,6 %
Qarshi	395	18,9 %	Mirishkor	221	17,0 %
Kasbi	318	22,3 %	Shahrisabz shahri	210	12,6 %
Kitob	309	15,2 %	Chiroqchi	208	14,1 %
Shahrisabz	304	20,9 %	Ko‘kdala	197	24,7 %
G‘uzor	303	20,5 %	Muborak	150	15,6 %

2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Qarshi shahrida (19,2 foiz), Koson (7,6 foiz), Yakkabog‘ (7,2 foiz), Qarshi (7,1 foiz) va Kitob (6,9 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 70 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Qarshi shahri	5 621	G‘uzor	1 480
Koson	2 240	Chiroqchi	1 475
Yakkabog‘	2 116	Shahrisabz	1 457
Qarshi	2 094	Kasbi	1 426
Kitob	2 027	Mirishkor	1 303
Qamashi	1 909	Dehqonobod	1 251
Shahrisabz shahri	1 663	Muborak	962
Nishon	1 482	Ko‘kdala	797

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda**


Hududlar kesimida

Qamashi	766
Nishon	590
Koson	579
Mirishkor	489
Yakkabog'	439
Kasbi	430
Dehqonobod	411
Kitob	405
Shahrisabz	384
Qarshi	350
Ko'kdala	197
G'uzor	186
Chiroqchi	182
Qarshi shahri	179
Muborak	174
Shahrisabz shahri	51



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.



**Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va
bu sohalarda xizmat
ko'rsatish**

**O'rmonchilik va
yog'och
tayyorlash**

**Baliq ovlash va
akovakultura**

2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	725
Kitob	438
Yakkabog‘	362
Shahrisabz shahri	307
G‘uzor	293
Qarshi	276
Shahrisabz	249
Qamashi	223
Chiroqchi	206
Koson	200
Kasbi	167
Mirishkor	145
Nishon	108
Muborak	106
Dehqonobod	95
Ko‘kdala	95



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. 2020- yilning mos davrida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalarini sonining o‘sish sur’ati 104,3 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxona va tashkilotlarning 11,6 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 91,1 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish 72,2 foiz), 6,9 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish 90,3 foiz), 1,2 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish 66,7 foiz) va 0,8 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish 103,1 foiz) tashki etgan.

Ishlab chiqarish sanoati

3 638

278

Tog‘-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash

Suv bilan ta’minlash,
kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni
yig‘ish va utilizatsiya qilish

46


Elektr, gaz, bug‘ bilan
ta’minlash va havoni
konditsiyalash

33

2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	731
Qarshi	302
Koson	279
Yakkabog‘	166
Shahrisabz shahri	124
Chiroqchi	124
Muborak	123
Kasbi	117
Kitob	112
Qamashi	108
Shahrisabz	106
Dehqonobod	90
Mirishkor	85
G‘uzor	84
Nishon	83
Ko‘kdala	35




Mamlakatimizda qurilish sohasida iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 61,8 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 70,9 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 17,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 128,9 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 21,0 foiz ulushni va 73,0 foizni tashkil etdi.


459

Fuqarolik
obyektlarini qurish




560

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari



1 650


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	2181
Koson	856
Qarshi	783
Yakkabog'	718
Chiroqchi	679
Shahrisabz shahri	671
Kitob	601
G'uzor	592
Qamashi	548
Kasbi	515
Nishon	471
Dehqonobod	466
Mirishkor	419
Muborak	392
Shahrisabz	391
Ko'kdala	327



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 100,3 foizi yoki 10 574 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 70,9 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 86,6 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 21,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 96,8 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 88,0 foizni tashkil etdi.

838

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 245

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


7 527

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	415
Shahrisabz	175
Kitob	170
Shahrisabz shahri	150
Yakkabog‘	145
G‘uzor	90
Qarshi	86
Chiroqchi	82
Qamashi	72
Koson	55
Dehqonobod	50
Nishon	47
Ko‘kdala	40
Kasbi	30
Muborak	30
Mirishkor	27



2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 148,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 10,6 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 89,4 foiz ulushini tashkil etdi.

177

Yashash bo‘yicha
xizmatlar



1 487


Oziq- ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo‘yicha xizmatlar



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Qarshi shahri	143
Chiroqchi	49
Qarshi	34
Shahrisabz shahri	29
G'uzor	28
Kitob	24
Koson	18
Kasbi	18
Yakkabog'	17
Ko'kdala	11
Qamashi	9
Mirishkor	8
Nishon	7
Muborak	6
Shahrisabz	5
Dehqonobod	4



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 23,1 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 91,3 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 33,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 80,7 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 43,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 85,1 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	248
Shahrisabz shahri	85
Yakkabog'	71
Kitob	66
Koson	52
Qarshi	49
Qamashi	42
Shahrisabz	36
Chiroqchi	30
G'uzor	27
Nishon	24
Kasbi	22
Mirishkor	20
Muborak	16
Dehqonobod	10
Ko'kdala	8



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 668 ta yoki 82,9 foiz ulushi tadbirdorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'naliшlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

95,8 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'naliшiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 97,6 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'naliшidagi korxonalar soni 2,4 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 76,0 foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'naliшidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,9 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 93,8 foizni tashkil etdi;



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	341
Koson	84
Qarshi	73
Yakkabog'	62
Shahrisabz shahri	60
G'uzor	58
Kitob	55
Mirishkor	52
Shahrisabz	45
Kasbi	43
Qamashi	22
Chiroqchi	21
Nishon	17
Dehqonobod	17
Muborak	15
Ko'kdala	14



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonanining 2,9 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o'sish sur'ati 93,3 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 92,5 foizni;

pochta va kuryerlik yo'nalishi 88,9 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 1 ta;

suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 1 tani tashkil etadi.




Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy

shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

**Tadbirkorlik
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalilanildi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarни tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mas’uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyatini bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zлari qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	545	G‘uzor	154
Yakkabog‘	355	Chiroqchi	147
Koson	308	Muborak	122
Kasbi	266	Ko‘kdala	113
Qarshi	217	Shahrisabz shahri	82
Nishon	210	Kitob	72
Mirishkor	193	Shahrisabz	59
Qamashi	181	Dehqonobod	23

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 29 470 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 16 757 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirdorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdoda – 33,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 23,0 foiz, qurilish – 11,3 foiz, sanoat – 11,2 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Qarshi shahri	3761	Chiroqchi	874
Koson	1631	Kitob	680
Yakkabog'	1432	Muborak	649
Qamashi	1301	G'uzor	648
Qarshi	1059	Shahrisabz shahri	648
Kasbi	1017	Shahrisabz	509
Mirishkor	991	Ko'kdala	393
Nishon	935	Dehqonobod	229


Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirdorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.


2023- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 92 taga, tashish va saqlashda 11 taga ko‘paygan.

Hududlar kesimida

Kitob	222	Yakkabog‘	36
Dehqonobod	201	G‘uzor	29
Qarshi shahri	146	Muborak	24
Shahrisabz	120	Qamashi	23
Shahrisabz shahri	110	Mirishkor	23
Qarshi	68	Chiroqchi	20
Kasbi	45	Ko‘kdala	19
Nishon	37	Koson	15

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 78,2 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Qarshi shahri	1303	Qamashi	387
Kitob	1062	Chiroqli	359
Dehqonobod	873	Kasbi	355
Shahrisabz shahri	770	Koson	336
Yakkabog'	566	G'uzor	262
Qarshi	555	Muborak	206
Shahrisabz	470	Mirishkor	178
Nishon	423	Ko'kdala	157

2023- yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirdorlik subyektiidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirdorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Shahrisabz	125	Nishon	32
G‘uzor	120	Shahrisabz shahri	18
Qarshi	107	Kitob	17
Koson	76	Yakkabog‘	15
Qarshi shahri	70	Dehqonobod	10
Ko‘kdala	65	Muborak	4
Qamashi	42	Mirishkor	3
Chiroqchi	36	Kasbi	2

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra 3 904 etdi.

Hududlar kesimida

G‘uzor	559	Chiroqchi	221
Qarshi shahri	527	Qamashi	173
Shahrisabz	458	Nishon	116
Qarshi	446	Yakkabog‘	110
Kitob	269	Mirishkor	108
Koson	238	Muborak	97
Ko‘kdala	236	Dehqonobod	84
Shahrisabz shahri	232	Kasbi	30

4- BO'LIM. XORIJIY KAPITAL ISHTIROKIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokida korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot 2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish




Boshqa turlar

Yetakchi o'rinni 27 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 16,2 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Xitoy Xalq Respublikasi (ulushi 15,6 foiz), Afg'oniston (ulushi 10,8 foiz), Turkiya Respublikasi (ulushi 9,0 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 5,4 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	40	Nishon	8
Muborak	16	Yakkabog'	8
Dehqonobod	14	Qamashi	6
Qarshi	13	Kasbi	6
Kitob	12	Shahrisabz shahri	5
Koson	11	Chiroqchi	5
Mirishkor	9	Shahrisabz	3
G'uzor	8	Ko'kdala	3

2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda



O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 106 tasi qo‘shma korxonalar, 61 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

qo‘shma korxonalar

xorijiy korxonalar

6	G‘uzor	2
----------	--------	----------

9	Dehqonobod	5
----------	------------	----------

4	Qamashi	2
----------	---------	----------

8	Qarshi	5
----------	--------	----------

6	Koson	5
----------	-------	----------

8	Kitob	4
----------	-------	----------

5	Mirishkor	4
----------	-----------	----------

6	Muborak	10
----------	---------	-----------

5	Nishon	3
----------	--------	----------

1	Kasbi	5
----------	-------	----------

1	Ko‘kdala	2
----------	----------	----------

5	Chiroqchi	0
----------	-----------	----------

1	Shahrisabz	2
----------	------------	----------

6	Yakkabog‘	2
----------	-----------	----------

32	Qarshi sh.	8
-----------	------------	----------

3	Shahrisabz sh.	2
----------	----------------	----------

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



**Statistik registrlarni
yuritish bo‘limi**
Tel.:(75) 221-17-93